

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15003477>

VATANPARVARLIK VA SHAXS MA'NAVIYATI MASALASI

Xolmirzaev Nodirjon Nizomjonovich

Qo'qon universiteti v.b. professori, falsafa fanlari doktori (DSc)

Vatan – bu ajdodlar maskani, el-yurt, xalq voyaga yetgan, uning tili, tarixi, madaniyati, urf-odatları, qadriyatlari chinakamiga shakllanib, o'sib, kamol topib boradigan zamindir.

“Vatanni sevmok iymondandir” deyilgan muqaddas xadisi shariflarda Ya'ni iymoni but, vijdoni pok xar bir inson vatanni sevadi, uni g'animlar ko'zidan asraydi, uning yashnashi va yashashi, xurligi uchun kurashadi. Bular aynan vatanparvarlik asosiy belgilari sifatida tilga olinadi. Shuningdek har bir inson vatan kamoloti va istiqboli, el-yurtining ozodligi va mustaqilligi uchun xamma narsani, xatto shirin jonini xam ayamaydi. Bu g'oyalar ota-boblarimizga singdirilgan dunyoqarash xisoblanadi. Bu xaqda so'z ketganda mavlono Fuzuliyning, mening bitta xayotim bor, bordiyu mingta hayotga ega bo'lgan taqdirimda ham xammasini vatan uchun sarflagan bo'lur edim, deb aytgan so'zlari har birimiz uchun bebaxo o'gitdir. Bir so'z bilan aytganda bobolarimizga xos bo'lgan vatanparvarlikning tarkibiy qismlari sifatida yuqorida aytilgan omillarni sanab o'tish mumkin. Afsuski so'nggi paytlarda xalqimiz orasida vatanparvarlik tuyg'usini yo'qolib borayotganligi achinarlidir. Shunday ekan biz xalqimizga o'sha vatanparvarlikni qaytarish yo'lida katta ishlarni amalga oshirishimiz zarur.

Ta'kidlash joiz milliy mustaqillik - xalqimizda, ayniqsa o'sib kelayotgan yosh barkamol avlodimizda vatanparvarlik to'yg'ularining tiklanishida muhim ahamiyat kasb etdi. Hozirda vatanparvarlik o'zining qanday qirralari bilan namoyon bo'layotir? Vatanparvarlikning mohiyati nimalarda, qanday amaliy ishlar faoliyatida

namoyon bo'ladi? Umuman vatanparvarlik nima, uni qanday tushunmoq kerak? Hozirgi o'zbek vatanparvarligi ota - bobolarimiz yaratuvchanlik ishining bevosita davomidir. Saodatli, baxtli, kelajagi buyuk O'zbekistonga xozir xar daqiqada ulush qo'shmoq, vatanga muxabbat, vatanparvarlikning asl ko'rinishidir. Vatanga munosib farzand bo'lish, uning yeri, suvi, eli bilan chambarchas bog'liq ekanligimizni teran anglash, uni ardoqlash xam vatanparvarlikning bir ko'rinishi, qirrasidir.

Vatanparvarlikni eng oliy tuyg'u sifatida o'tmish mutafakkirlari aloxida qayd etganlar va o'zlari xam unga sodiq qolganlar. Nemis faylasufi Gegelga ko'ra ma'rifatli xalqlarning xaqiqiy jasorati Vatan yo'lida qurbon bo'lishga xozir ekanliklarida aks etadi. Kimki o'z yurtini sevmasa, u xech nimani seva olmaydi degan fikrni bildiradi ingliz shoiri Bayron. Rus tanqidchisi Belinskiyning fikricha kimki o'z Vataniga daxldor bo'lmasa, u insoniyatga xam daxldor emas.

Vatan tuyg'usi bo'lgan kishidagina vatanparvarlik jo'sh uradi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov aytganidek: "Vatanga muxabbat xissi odamning qalbida tabiiy ravishda tug'iladi. Ya'ni, inson o'zligini anglagani, nasl-nasabini bilgani sari yuragida Vatanga muxabbat tuyg'usini ildiz otib, yuksala boradi. Bu ildiz qanchalik chuqur bo'lsa, tug'ilib o'sgan yurtga muxabbat xam shu qadar cheksiz bo'ladi"[1].

Vatanparvarlik deganda yana quyidagilarni anglash joiz:

- o'z xalqini, tarixini yaxshi bilish va u bilan faxrlanish;
- qadimiy obidalar, mislsiz imoratlar, ajdodlar yaratgan moddiy va ma'naviy meroslarni ko'z qorachig'iday asrash va avlodlarga taqdim etish;
- xalqimizning, ajdodlarimizning go'zal va ma'noli urf-odatlar, rasm- rusum va udumlarini qadrlay bilish, ularni davom ettirish;
- ajoyib vatandoshlar - ajdodlar nomi bilan, ularning ulug' ishlari, ijodlari bilan faxrlanish, ularning ishlarini davom ettirish, ularga munosib voris bo'lish;
- shunday ajoyib xalqqa, yurtga, uning boy tili va madaniyatiga mansubligi bilan faxrlanish;

- Turonzaminni ximoya qilib, tomirida oxirgi qoni qolguncha dushmanga qarshi kurashgan baxodirlarni, ayovsiz janglarda xalok bo'lgan qaxramonlar nomini yod etish;

- bu aziz va go'zal vatanimizda yuksak e'tiqod bilan yashash, unga xamisha sadoqatli bo'lishdir.

- Vatanparvarlik xammamizning o'z ishimizga mas'uliyat bilan qarash, vatanning boyliklarini ko'z qorachig'iday asrash, boyliklariga boylik qo'shishga o'z ulushimizni qo'shish, ilm-fan cho'qqilari sari intilish va boshqalardir.

- ona yurtimizda tinchlik, barqarorlik va osoyishtalikni saqlashga intilish vatanparvarlikning belgisidir;

- vatanparvarlik – xalqaro munosabatlarda vatan, millat manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yishdir.

Vatanparvarlik xaqida so'zlar ekanmiz, mustaqillik bizga in'om etgan vatanparvarlikning oliy ramzlari xaqida so'zlamasdan iloj yo'q. Vatanparvarlikning oliy ramzlari xalqimiz, yoshlarimiz qalbidan mustaxkam o'rin olayotganligi nihoyatda quvonchlidir. “O'zbekiston fuqarolari uchun mustaqillikning muqaddas ramzlari – Davlat Gerbi, Davlat Bayrog'i, Davlat Madxiyasi azizdir. Ular ona vatan - O'zbekiston Respublikasiga iftixor va cheksiz xurmat to'yg'usini tarbiyalaydi”.

Xulosa shuki, farzandlarimizni shu zaminga sadoqat ruxida tarbiyalash, ularning qalblarida shu muborak zaminning xar qarichiga mexru muxabbat uyg'otish bugungi kunning eng ustivor fazilatlaridan biriga aylanayotgani xammamizni quvontiradi va yuksak ma'suliyat yuklaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Islom Karimov. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. T.: “O‘zbekiston”, 2000, 22-bet.
2. Ibroximov A., Sultonov X., Jo‘raev N. Vatan tuyg‘usi. T., 1996 y.
3. Komilov N. Tasavvuf yoki komil inson axloqi. T., 1996 y.
4. Holmirzaev, N. N. "Eastern and western experience of labor culture." *Мировая наука* 4 (25) (2019): 51-52.
5. Kholmiraev, Nodirjon Nizomjonovich. "Labor creative ability of integration of interests of personality and society." *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology* 1.8 (2019): 217-224.
6. Holmirzaev, Nodir. "Socio-philosophical factors of increasing social activity of student-youth." *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology* 1.6 (2019): 250-254.
7. Kholmiraev, Nodirjon Nizomjonovich. "Theoretical basis of improving social activity of youth." *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology* 2.3 (2020): 260-263.